

INTELLEKTUAL MULK OB'EKTLARIGA BO'LGAN HUQUQLARNING HIMOYA MEXANIZMLARI

Toshkent davlat transport universiteti

4-bosqich talabasi

Asqarov Ibrohimjon Erkin o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi doirasida intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning himoya mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada intellektual mulkning asosiy turlari, ularga bo'lgan huquqlarning tabiati va fuqarolik huquqiy himoya vositalari tahlil qilinadi. Intellektual mulk obyektlarining tasnifi va himoya mexanizmlarining huquqiy asoslari, shuningdek, amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk ob'ektlari, himoya mexanizmlari, sudda himoya qilish, fuqarolik huquqiy himoya vositalari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida, har kimning ijod erkinligi, intellektual mulk qonun himoyasida ekanligi belgilangan. Mutloq huquq egalarining huquqiy himoyasi nafaqat maxsus qonunlar, balki konstitutsiyada ham o'z ifodasini topgan. Butun jahon internet tarmog'idan keng foydalanishi natijasida foydalanuvchilar axborotni tez va oson olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada mualliflik huquqiga ega bo'lganlar o'zlarining huquqlari buzilish holatlarini kuzatib borishlari mumkin bo'ldi. Oxirgi paytda, aynan intellektual mulk egalarining huquqlaridagi qonun buzilishlar ko'p sodir bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Bu borada fuqarolik huquqi doirasida intellektual mulk huquqlarining himoyasi bir necha mexanizm orqali amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari belgilangan:

huquqni tan olish;

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tugʻdiradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qoʻllash;

davlat organining yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

shaxsning oʻz huquqini oʻzi himoya qilishi;

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

zararni toʻlash;

neustoyka undirish;

maʼnaviy ziyonni qoplash;

huquqiy munosabatni bekor qilish yoki oʻzgartirish;

davlat organining yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qoʻllamasligi.

Shuningdek, FKning 1040-moddasida mutlaq huquqlar qaysi moddiy obʼektlar yordamida buzilgan boʻlsa, oʻsha moddiy obʼektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obʼektlarni olib qoʻyish orqali, hamda yoʻl qoʻyilgan buzish haqidagi maʼlumotni majburiy suratda eʼlon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishliligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni kiritish orqali himoya qilish mumkin.

Mazkur usullar ichida sud orqali himoyani taʼminlash, intellektual mulk huquqlari himoyasida ham toʻgʻridan-toʻgʻri tatbiq etiladi va mutloq huquq egasiga buzilgan huquqni tiklash, zararni toʻlash yoki huquqbuzarlikni toʻxtatish imkonini beradi. Himoya mexanizmlari milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga asoslanadi, masalan, Jahon intellektual mulk tashkilotining (WIPO) shartnomalari, shu jumladan Paris konventsiyasi

va TRIPS shartnomasini keltirishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan mazkur shartnomalar qabul qilingan.

Sud himoyasi eng asosiy va keng qo‘llaniladigan mexanizm bo‘lib, mutloq huquq egasi huquqbuzarlikka qarshi da’vo qo‘zg‘atishi mumkin. Masalan, patent buzilishi holatida sud huquqbuzarlikni to‘xtatish, zararni to‘lash, kontrafakt mahsulotlarni musodara qilish yoki yo‘q qilish haqida qaror chiqaradi. FKning 10-moddasiga ko‘ra, sud himoyasi huquq egasining talabiga asoslanadi va da’vo muddati huquqbuzarlik aniqlangan paytdan 3 yilni tashkil etadi. Sud amaliyotida savdo belgilarining buzilishi bo‘yicha ishlar ko‘paygan, masalan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda mashhur brendlarning soxta nusxalari savdosi bilan bog‘liq nizolar sudda ko‘rib chiqilgan va huquq egalariga zarar to‘langan. Sud himoyasining murakkab jihatini ekspertiza talab etilishi bo‘lib, masalan, ixtiro yoki asar o‘xshashligini aniqlash uchun mutaxassislar jalb qilinadi. Bu jarayon FKning 79-moddasiga ko‘ra tartibga solinadi va sudga huquqiy dalillarni taqdim etishga yordam beradi.

Intellektual mulk huquqi ob’ektiga nisbatan mutlaq huquq egasining huquqlari buzilgan taqdirda, unga nafaqat moddiy zarar, balki ma’naviy ziyon ham etkazilishi mumkin. Ma’naviy ziyon ko‘p hollarda mutlaq huquq egasi, u ishlab chiqarayotgan mahsulot haqida salbiy xarakterdagi tasavvurlar vujudga kelishida, boshqa sub’ektlarda unga nisbatan ishinchni yo‘qolishi kabi holatlarda ifodalanadi. Bunday hollarda mutlaq huquq egasi huquqbuzarlardan o‘ziga etkazilgan ma’naviy zararni pul ko‘rinishida qoplashni talab qilishga haqli.¹

Keyingi himoya usullardan, FKning 1036-moddasiga ko‘ra, intellektual mulk huquqlarini litsenziya orqali o‘tkazish mumkin, bu huquq egasiga nazorat huquqini va royaltini beradi. Masalan, litsenziya shartnomasida huquqbuzarlik holatida jarima yoki

¹ Ахрор Рўзиев. Интеллектуал мулк ҳуқуқини ҳимоя қилишнинг фуқароликҳуқуқий усуллари ва воситалари “Интеллектуал мулк объектларини суд орқали ҳимоя қилишнинг ташкилий-ҳуқуқий таъминлаш масалалари” мавзусида ўтказилган давра суҳбати материаллари. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби. 2023. 78 б

shartnomani bekor qilish nazarda tutilishi mumkin. Franchayzing shartnomalari savdo belgilari va nou-xauni himoya qiladi, bu FKning 862-moddasi bilan tartibga solinadi. Shartnomaviy himoyaning afzalligi, tomonlar oldindan huquq va majburiyatlarni o'zlari belgilaydi, ammo shartnoma shartlari buziliash holatida sud orqali himoya amalga oshiriladi. Biroq, shartnomalar xalqaro bo'lsa, FKning 1180 yoxud 1190-moddalariga ko'ra, xorijiy huquq qo'llanilishi mumkin, bu esa qo'shimcha ziddiyatlarga olib keladi.

Mutlaq huquqlarni himoya qilish usullaridan biri mutlaq huquqlar qaysi moddiy ob'ektlar yordamida buzilgan bo'lsa, o'sha moddiy ob'ektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy ob'ektlarni olib qo'yish hisoblanadi. Ushbu usul intellektual mulk huquqi ob'ektlarining barcha turlari bo'yicha keng foydalaniladi. Misol uchun, mualliflik huquqi ob'ektlari bo'yicha kontrafakt tovarlarni chegaradan olib o'tishda bojxona xodimlari tomonidan olib qo'yilishi mumkin. Shuningdek, olib qo'yish sud orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Olib qo'yishda bunday ob'ektlar fuqarolik muomalasidan chiqariladi va ularni har shaklda ularni tasarruf etish ta'qiqlanadi. Ushbu ob'ekt huquqbuzarlardan ham, uchinchi shaxslardan ham olib qo'yilishi mumkin. Bunda, uchinchi shaxslar olib qo'yilish tufayli o'ziga etkazilgan zararni undirish haqida huquqbuzarga regress da'vo qo'zg'atishga haqlidir. Ayrim hollarda moddiy ob'ektlar uchinchi shaxslardan olib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, kontrafakt tovar hisoblangan kitobni sotib olgan shaxs, undan shaxsiy maqsadlarda foydalanishga haqli va uni olib qo'yish mumkin emas.

Amaliy muammolar orasida sud jarayonlarining uzoqligi, dalillar to'plashdagi qiyinchiliklar va xalqaro nizolarda yurisdiksiya masalalari bor. Masalan, xorijiy kompaniyalar O'zbekistonda huquqlarini himoya qilishda milliy sudlarga murojaat qiladi, ammo FKning 1180-moddasiga ko'ra, xalqaro shartnomalar ustunlik qiladi. Kelgusida himoya mexanizmlarini takomillashtirish uchun raqamli platformalar (masalan, elektron sud) va mutaxassislarni tayyorlash zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, intellektual mulk huquqini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy usullari va vositalarini amaliyotda qo'llashda ayrim qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Ushbu holatni

quyidagilar bilan ifodalash mumkin: birinchidan, sudlar zararni aniqlashda moddiy-ashyoviy ob'ektlarga yetkazilgan zararni aniqlash mezonlarini qo'llash hollari uchraydi. Ikkinchidan, intellektual mulk huquqini himoya qilishda shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish usullarini qo'llashga alohida e'tibor berib, mulkiy huquqlarni nazardan qochiradilar. Uchinchidan, huquqbuzarga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik choralari qo'llanishi huquq egasini fuqarolik-huquqiy himoya usullaridan foydalanishini istisno etadi degan noto'g'ri hulosaga kelmoqdalar.²

Intellektual mulk huquqlarining fuqarolik huquqi doirasida himoyasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va innovatsion rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning xalqaro integratsiyasini ta'minlaydi. Ushbu maqolada ko'rib chiqilganidek, intellektual mulk obyektlarining fuqarolik huquqiy tabiati va himoya mexanizmlari kompleks tizimni tashkil etadi, bu tizim milliy qonunchilik – O'zbekiston Fuqarolik kodeksi, maxsus qonunlar (masalan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun) va xalqaro shartnomalar (WIPO, TRIPS) asosida qurilgan. Himoya mexanizmlari huquq egalariga samarali choralar ko'rish imkonini bersada, amaliyotda bir qator muammolar – sud jarayonlarining uzoqligi, ekspertiza etishmasligi va raqamli texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi – mavjudligi aniqlandi.

Xulosada ta'kidlash joizki, intellektual mulk huquqlarining himoyasi nafaqat iqtisodiy zararlarning oldini olish, balki innovatsiyalarni rag'batlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan intellektual mulk strategiyasi doirasida qonunchilikni takomillashtirish va raqamlashtirish choralari ko'rilmogda, bu esa ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini tezlashtirib, huquqbuzarliklarga qarshi choralar samaradorligini oshiradi. Biroq, himoya mexanizmlarining samaradorligi huquqiy ta'lim va jamoatchilik

²Ахрор Рўзиев. Интеллектуал мулк ҳуқуқини ҳимоя қилишнинг фуқароликҳуқуқий усуллари ва воситалари. "Интеллектуал мулк объектларини суд орқали ҳимоя қилишнинг ташкилий-ҳуқуқий таъминлаш масалалари" мавзусида ўтказилган давра суҳбати материаллари. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби. 2023. 84 б

xabardorligiga bog‘liq ekanligini eslatib o‘tish lozim: ko‘plab tadbirkorlar va ijodkorlar mualliflik huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazmasdan qoldirib, keyinchalik zarar ko‘radi.

Kelgusidagi takliflar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, FKning intellektual mulk bo‘limini yangilash orqali raqamli huquqbuzarliklarga (masalan, onlayn piratlikka) qarshi choralar kuchaytirilsin; ikkinchidan, Intellektual mulk agentligining (IMA) imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Ta’kidlash lozimki, intellektual mulk ob’ektlari bilan bog‘liq nizolarni ko‘rishga ixtisoslashgan alohida sudlarning tashkil etilganligi (xoriij amaliyotida) intellektual mulk sohasida chuqurroq bilimga ega bo‘lgan sudyalar korpusini shakllantirish, bu toifadagi sudlov ishlarini unifikatsiyalash orqali nizolarni sansalorliklarsiz, qisqa muddatlarda ko‘rib chiqilishiga hamda qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga zamin yaratadi.³

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997
3. Axror Ro‘ziev. Intellektual mulk huquqini himoya qilishning fuqarolikhuquqiy usullari va vositalari “Intellektual mulk ob’ektlarini sud orqali himoya qilishning tashkiliy-huquqiy ta’minlash masalalari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbat materiallari. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi. 2023. -120 B
4. Hoji-Murod Isoqov. Xorijiy davlatlarda intellektual mulk ob’ektlarini sud orqali himoya qilishga doir qonunchilik va amaliyot. “Intellektual mulk ob’ektlarini sud orqali himoya qilishning tashkiliy-huquqiy ta’minlash masalalari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbat materiallari. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi. 2023. -120 B

³ Хожи-Мурод Исоқов. Хорижий давлатларда интеллектуал мулк объектларини суд орқали ҳимоя қилишга доир қонунчилик ва амалиёт. “Интеллектуал мулк объектларини суд орқали ҳимоя қилишнинг ташкилий-ҳуқуқий таъминлаш масалалари” мавзусида ўтказилган давра суҳбати материаллари. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби. 2023. 6 б